

“LISON UT-TAYR” ASARINING BADIYATI

Hayitova Aziza Parmanqul qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti filologiya va tillarni o'qitish:

o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Lison ut- tayr" asarining tub mohiyati hikoyatlar tahlili orqali ochib berilgan hamda fikr yuritilgan.

Kalit so'z: Qush, ishq, tasavvuf, Hudhud, qalb, ibodat, soflik, qiyinchiliklar, bardosh, sabr

Barchani o'z asarlari ila maftun etgan, “daho” deya sharaflangan mutafakkir Mir Alisher Navoiy bir-birini takrorlamas asarlar muallifidir. Uning har bir asaridan takrorlanmas va qiymati beqiyos ta'limotlarni olishimiz mumkin. Navoiy asarlari turli yoshidagi tajribalari mahsuli ekan, biz asarlari orasidagi eng sara asar deb shoirning “Lison ut-tayr” dostonini olishimiz mumkin. Buning isboti sifatida tadqiqotchi M.Djakbarovanning quyidagi fikrini olishimiz mumkin:” “ Lison ut-tayr” haqida, uning yaratilishi-yu g'oyasi to'g'risida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, uning har safar yangidan kashf etilayotgan olami, o'ziga xos badiiyati, ruhini yuksaltiruvchi ifori ko'plab ilm ahlini, kitobxonlarni o'ziga rom etib kelmoqda”. [5:380] Bu asar yaratilishiga uni yoshligidan o'ziga batamom maftun ertgan Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoni sabab bo'lib xizmat qiladi. Asar shoirni o'ziga shu darajada jalb etadiki, doston uning xilvatdagi do'sti bo'lib, uni xatto yor-u, birodarlaridan ma'lum daraja qochirib, uzlat eshigi tomonga yetaklaydi. Ota-onasi bu holdan xavotirga tushib, asarni olib qo'yishsa-da, yosh Alisher dostonni allaqachon yod olib bo'lgan edi. Bu haqida Navoiy “Lison ut- tayr” dostonida ham ta'kidlab o'tadi.

Yoshligida qalbini mavh etgan asarga javoban u 1499-yil 58 yoshida " Lison ut-tayr " dostonini yaratadi .Doston 3598 baytdan (176 kichik bobdan) iborat bo'lib, aruz vaznining ramali , musaddasi, maqsur (foilotun, foilotun, foilon) vazida yozilgan.[2] Ma'lumki Navoiy turkiy asarlarida "Navoiy", forsiy asarlarida foniy "Foniy" tahallusini qo'llaydi. Garchand bu asar o'zbek tilida yozilgan bo'lsada, uni "Foniy" tahallusi ostida e'lon qiladi. Navoiyning bu ikkinchi tahallusi tasavvufda eng oliy kamolot bosqichiga yetgan kishidir.

Dostondagi ana shu bosh falsafiy masala Shayx San'oning sevgi qissasida qisqaroq bo'lsa- da, yaqqol ifodalangan. Majnun al-haq, ya'ni Alloh devonasi nomi bilan mashhur bo'lgan hikoyada esa, Allohning odam uchun o'zi bilmasa ham mehribonligi, uning g'amini yeyishi aks ettiriladi."Tasavvuf ta'limoticha, olam, quyosh, odamlar, hayvonlar, qushlar, kapalaklar va jami boshqa narsalar Allohning

zuhrotidan iborat. Go'yo Alloh o'z qudratini namoyish etish uchun o'z husnini olamdagi narsalarda ifodalangan. Tasavvuf ahli ishqning uch xilini bir- biridan farq edilar. Birinchisi haqiqiy ishq yoki ishq ilohiy: Insonning Allohga muhabbatidir. Ikkinchisi majoziy ishq yoki odamlarning odamga muhabbatidir. Uchinchisi: Pok ishq yoki yuksak ma'naviy kamolot egalarining pok ko'z bilan (g'arazsiz) go'zal vujudiga boqib pok lazzat olishidir"-deb ta'kidlaydi navoiyshunos olim Vahob Rahmonov.[4:110]

Navoiy asarini Allohga hamd aytish va payg'ambarlarni yodga olish ila boshlaydi. Navoiy bu asarida qushlar nutqi ostida insonlarga murojaat qiladi. Qushlar ularning yo'l boshlovchisi bo'lmish Hudhudga o'z fe'llarini aytar ekan, Hudhud ularning bu fe'llari yomonligini tushuntirib har biriga hikoyani qushlarga misol qilib keltiradi. Hudhud va qushlarning o'zaro muloqoti orqali Navoiy yuqori darajadagi nutq madaniyatini ham namoyon etadi. Bu haqida tadqiqotchi M.Djakbarova ham o'z maqolalarining birida shunday deydi:"Darhaqiqat, ushbu nodir yodgorlikda nutq so'zlash masalasi ham dialoglar orqali ifodalangan. O'zaro murojaatlarda, betakror undalmalardan foydalanilgan. Jumladan, Simurg' haqida xabar berganda qushlar Hudhudga "Ey nafasi jonbaxsh-u nutqi dilkash!" deya murojaat qilishsa, ularga yo'l ko'rsatishini yolvorib so'rashganda "Ey yo'l boshchi!", "Ey peshvo!" kabi undalmalarni qo'llaydi. Hudhud ham o'z o'rnida qushlarga har birining o'zlariga xos alohida fe'li-sajiyasidan kelib chiqib quyidagicha murojaat qiladi:

1. Sayrog'il, ey To'tii shirin kalom,
Nutq tashrifi bila oliy maqom.
Xil'ati axzar bila jo'yo shah,
Yo'l oziqqonlarg'a bo'lg'il Xizri rah. [5; 380]

(Ey o'z nutqining shuhrati bilan oliy maqom tutgan shirinso'z To'ti, sayra! Egningdagi yashil libosing bilan shohni izla, yo'ldan ozganlarga Xizr kabi yo'l ko'rsat.)

2. Ko'rguz, ey Tovusi gulzori alast,
Jilvayekim qilg'osen davronni mast.
Ham boshing toji rayosat maskani,
Ham taning naqdi latofat maxzani. [5; 380]

(Ey Tovus, davronni mast-u alast qiluvchi jilvalaringni ko'rsat! Boshing uzra rahnamolik toji bor, taning latofat va go'zallikka kon).[5:380]

Ba'zi qushlar "Biz tug'ilishimiz bilan bizga shohlik taqdir azal qilingan, shunday ekan biz yana nega shoh tomon boraylik"- deb, nodonlarcha fikr yuritadilar. Bu fikrlar oramizdagi ba'zi odamlarning o'zini shoh bilib, hamma narsa meniki, hammasiga o'zim erishdim deguvchilar uchun bir dars namunasidir. Asarda barcha qushlar o'z kamchilik va ustun jihatlarini aytganda Hudhud ularning barchasi Allohdanligini, ustunlik deb bilganlari aslida nimadan iboratligi, kamchiliklari ular Alloh jamoliga

yetishish uchun ranj chekishni to'xtatishiga sabab bo'la olmasligini juda oqilona tushuntirib qo'yadi.

Masalan: Tovus o'z chiroyi bilan maqtanar ekan, u o'zini qasr va qushlarga ziynat beruvchi deb hisoblasa, xo'roz o'zini "Toj egasiman, tong va oqshomda muttasil toat qilishga chorlash uchun dilkash kuy berdi"- deydi.[6:71] Humo esa "Mening iqbolim shunchalik kulganki: hatto men o'z soyam bilan kishilarga sharaf taxti ato eta olaman"- deydi.[6:67] Shunda Hudhud ularga aslida kimligini aytadi. Tovus go'zalligi bilan maqtangani uchun unga "Odam degan tashqi go'zallik haqida so'z aytmaydi, kim-ki go'zlligi bilan maqtanar ekan uni odam deb bo'lmaydi, o'z shaklingga bino qo'ygan ekansan odamlar tomonidan masxara qilinishiga loyiqsan, Humo qushining so'zlari faqat afsona, garchi rost bo'lsa ham bundan senga nima foyda"- deydi. "Xo'roz esa aslida ovozi yoqimsiz, yuz xil yomonlik ko'rsatsa-yu o'ziga yaxshi nisbat beruvchi"- deydi, aslida bu sustkashlik alomati ekanligini aytadi.

Qushlar shu ko'y nolir ekan, Hudhud ularning dardlari Alloh yo'lidan qaytishga ya'ni ular kezib o'tgan Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqru fano kabi vodiylarni bosib o'tishda arzimasi sababligini ta'kidlaydi. Haqiqiy ishq sohiblari o'limni ham nazar qilmasligini aytadi. Qancha azoblarga bardosh berib yakunida 33 ta qush manzilga yetadi, ammo qarasarlar hammayoq zulmat. Bu holatdan ular nihoyatda noliydi bu mag'lub to'daga jamolni ko'rish uchun to'siqlik qiluvchi parda tutildi, sarflagan mehnatiga no rizo bo'lishadi. Shunda Hudhud ularga nasihat qilib, qalban go'zal qilishlikni, boriga shukur qilishlikni, Alloh yo'lida sarflanga mehnatga hech qachon achinmaslikni aytadi."Qasrni inson tansi, undagi ko'zguni ko'ngil deb bil va bu ko'zgudagi shoh husniga nazar tashla. Toki ko'zguga jilo berilmas ekan, shoh unga o'z aksini solmaydi. Uning husni aksini ko'zguda aks etmoqda deb anglagin va o'zingni uning qarshisida tomosha qilib turgan deb hisoblagin. Ko'zgu qanchalik tiniq bo'lsa, aks ham shunchalik ravshan namoyon bo'ladi." [6:75] Deyiladi hikoyatlarning birida. Shunda ular buni qalban anglab yetishadi, shunda qarasarlar-ki, atrof ta'rifi yo'q go'zal bo'lib ketadi. Shunda ularga to'siq bo'lgan pardalar olib tashlandi, vasl bog'ida shodlik va maqsad guli ochilib, vasl ichra bu xil maqsad va shodlikka erishildi. Qushlar qayoqqa qarasa o'zlari namoyon bo'lar, go'yoki kishilarning ko'zguga qaragani kabi edi. Ular baqoga erishdilar. S.H. Olimov "Lison ut-tayr"ning tub mohiyati" nomli maqolasida asarga turli davrlarda bo'lgan munosabatlar tahliliy-tanqidiy sharhlar bilan ochib berilar ekan, uning murojaatnoma, me'rojnoma asar ekanligi ta'kidlanadi. Jumladan, "Lison ut-tayr" faqat bir guruh kishilargagina tasavvufdan ta'lim beradigan dastur emas. Balki u— insonni hamisha ezguliklarinigina maqsad qilib yashashga, umrni bir pok va buyuk orzu sari intilish bilan o'tkazishga, Alloh, butun dunyo, demakki, insonning ham asl mohiyatini anglash uchun tinimsiz harakat qilishiga chorlovchi bir buyuk badiiy asar"-deya, o'z fikrini bildirib o'tadi.

Darhaqiqat, xulosa qilib aytganda, ijodkor asarida ,avvalo, qalb musaffoligi muhimligi, inson qalbi qay darajada go'zal bo'lsa, qushlar kabi shu darajada mukofotga erishishi ta'kidlanadi. Asarda insonlar fe'l atvorlari tahlil qilinadi. Navoiy asarlaridagi eng asosiy jihatlardan biri, u asarlarida ta'kidlagan har bir pand- nasihat har qaysi zamonda ham qimmatli va qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”
- 2.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Lison_ut-tayr
- 3.<https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/xurshid-davron-navoiynoma-xv-xvi-lison-ut-tayr-haj-armoni-yana-gavgo-mahbubul-qulub-navoiy-armoni.html>
- 4.www.ziyo.com.
- 5.”Alisher Navoiy Adabiy va Ilmiy Merosini O’rganish Masalalari” №68 (Xalqaro Konfrensiya Materiallari) 2023-yil 8-fevral << ADAST POLIGRAF>> Toshkent-2022
- 6.”LISON UT-TAYR” -T:.Yangi asr avlodi,2019.